

**MAKTAB DARSLIKLARIDA NUTQIY KOMPETENSIYALARNING O'RNI.
MATN BILAN ISHLASH VA O'QISH SAVODXONLIGI MISOLIDA**

Turg'unboyeva Zilola Farxod qizi

Samarqand Davlat Universiteti Kattaqo'rg'on filiali

Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti.

Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi

3-bosqich talabasi

Saydirasulova Munisa Saidg'ani qizi

Samarqand Davlat Universitetining Kattaqo'rg'on filiali

Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Email: turgunboyevazilola109@gmail.com

Annotasiya. Ushbu maqolada 7- sinf ona tili darsliklaridagi matn bilan ishlash va o'qish savodxonligini oshirish bilan birgalikda o'quvchilarning mantiqiy fikrlash kabi dastlabki ko'nikmalarini shakllantirish va yangilangan darsliklardagi topshiriqlarning qisqa tahlili, yutuq va kamchiliklarini o'z ichiga atroflicha, qamrab oladi.

Kalit so'zlar: Matn, matn tuzilishi, mazmun, o'qish, fikrlash, ko'nikma, til birliklari.

Ona tili ta'limida o'quvchilarning matn tuzish, uni tushunish va tahlil qilish o'quvchi ongining rivoj lanishiga, bog'lanishli nutqini shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarning yozma savodxonligi, matn tuzish malakasini oshirish masalasi doimo metodist olimlarning diqqat-e'tiborida bo'lib kelgan. Xususan, N.Bekniyazovanning "Boshlang'ich sinflar ona tili darslarida o'quvchilarni matn yaratishga o'rgatish metodikasi", M.Rixsiyevaning "Ta'lim rus tilida olib borilayotgan maktablarning o'zbek tili darslarida o'quvchilarni matn tuzishga o'rgatish metodikasi", K.Mavlonovanning "Matn tuzilishiga doir qoidalar", S.Boymirzayevaning "O'zbek tilida matnning kommunikativ-pragmativ mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar", T.Ziyodovanning "Matn yaratish texnologiyasi", M.Qurbonova, M.Yo'ldoshevlarning "Matn tilshunosligi" o'quv qo'llanmalari, Q.Qosimova, N.Mahmudov va boshqalar tomonidan yaratilgan tadqiqot ishlari, monografiya, metodik qo'llanmalarda hamda "Ona tili" darsliklari yuzasidan o'qituvchilar uchun yozilgan metodik adabiyotlarda yozma ishlarni tashkil qilish, bog'lanishli nutq tuzish, matn, matn strukturasi, tuzilishi, turlari, o'ziga xos xususiyatlari ilmiy jihatdan o'rganilgan.

Ushbu ilmiy adabiyotlarda matn strukturasi o'rgatishga qaratilgan yondashuvlar bilan bir qatorda ta'limga oid nazariy va amaliy bilimlarni sinflar kesimida tasniflab o'qitishga oid tamoyillar ishlab chiqishgan.

Bunda 7- sinf darsliklari tanlanib, shu yoshdagi o'quvchilar nimalarga e'tibor qaratish kerakligini aniqlash maqsadida, test va sinovlar topshiriqlari olindi.

Bunda 7- sinf o'quvchilari ko'proq xato qiladigan jihatlari; ayrim grammatik qo'shimchalarni noo'rin qo'llashi, fikrini aniq va ravon aytolmasligi, fikrdagi takrorlarga yo'l qo'yishi, fikriy to'xtamlilik yo'qligi, so'z qo'llash bilan bog'liq xatolarga yo'l qo'yishi, tinish belgilarni o'rnida ishlatolmaslik, gaplarni bir biri bilan bog'lay olmaslik, kelishik qo'shimchalarini to'g'ri qo'llay olmaslik kabi bir qancha xatolarga yo'l qo'yishadi. Bu kabi kamchiliklarni o'z o'rniga to'g'ri qo'yish o'qituvchidan talab etiladi. Bizga ma'lumki, yangi 7- sinf darsliklarida bir qancha o'qib tushunishga doir mashqlar keltirib o'tilgan. Buni 7- sinf ona tili darsligidagi "Kelajak kasblari" matni yuzasidan ko'rib chiqamiz. Bu matn orqali o'quvchida o'qib tushunish, hamda savollar orqali og'zaki nutqini rivojlantirish ko'nikmasi shakllantiriladi.

Bilasizmi, dunyo juda tez sur'atda rivojlanib, o'zgarib bormoqda. Mutaxassislarining aytishicha, yaqin kelajakda hozir mavjud kasblarning ko'pi keraksiz bo'lib qoladi va yangi kasblar paydo bo'ladi. Agar kelajakda ishsiz qolishni xohlamasangiz, hoziroq kasbtanlash masalasida jiddiyroq o'ylab ko'ring.

Robot texnologiyalari biz kutgandan ham tezroq rivojlanmoqda. Ayrim zavod va fabrikalarda ishlab chiqarish to'liq avtomatlashtirilgan. Ya'ni robotlar kuchidan foydalaniladi, odamlar esa deyarli ishlamaydi. Yaqin 20-30 yildan keyin esa robotlar hozir odamlar bajarayotgan ko'plab vazifalarni o'z zimmasiga olar ekan. Shuning uchun kasb tanlashda bu ishni kelajakda robotlar qila olishi yoki yo'qligi haqida ham o'ylab ko'ring.

Kelajakda olimlarga, ayniqsa, fizika, matematika, astronomiya, kimyo, biologiya kabi soha mutaxassislariga ehtiyoj ortadi. Axborot texnologiyalari rivojlangani uchun dasturchilik eng daromadli kasbga aylanadi. Kompyuter va axborot texnologiyalari bilan bog'liq har qanday kasb egalari kelajakda yaxshi ish bilan ta'minlanadi.

Kelajakda shifokor, o'qituvchi va murabbiylarga ham yaxshi oylik beriladi. Chunki bu kasblarni robotlar hech qachon egallay olmaydi. Ammo kompyuter grafikasining rivojlanishi tufayli kelajakda aktyorlarga ehtiyoj bo'lmasligi mumkin. Hatto bugun ham ayrim filmlarda aktyorlarning o'rnini kompyuter dasturi orqali yaratilgan qahramonlar egallab ulgurgan. Shuning uchun mashhur kino yulduzi bo'lishni orzu qilib yurgan bo'lsangiz, bu haqda qayta o'ylab ko'ring.

Kasb tanlashda O'zbekistondagi sharoitni ham hisobga oling. Ya'ru qanday kasblarga ehtiyoj bor, qanday sohalar hali rivojlanmagan yoki umuman bizga kirib kelmagani haqida o'ylang. Tag'in o'zingizcha, hech kim bilan maslahatlashmay kasb tanlab, kelajakda ishsiz qolib ketmang!

1. Matn muallifi ushbu fikrlari orqali kimlarga murojaat qilmoqda
2. Matnning asosiy maqsadi nimadan iborat?
3. Robotlarning asosiy vazifasi haqida gapiring.

4. Kelajakda tushunishga qanday kasb egalariga ehtiyoj ortishi kutilmoqda? Buning sababini tushuntirishga harakat qiling.

5. Aktyorlarning vazifasini kompyuterlar qay darajada uddalay oladi deb hisoblaysiz? Kompyuterda dasturlarida yaratilgan qahramonlar faoliyatini qanday baholaysiz

6. Tanlaydigan kasbingiz borasida kimlar bilan maslahatlashishni ma'qul ko'rasiz?

7. Matn bilan tanishganingizdan so'ng sizda tanlagan kasbingizni o'zgartirish fikri paydo bo'lmadimi? Javobingizni izohlang.

Yuqoridagi topshiriqlarni bajarish davomida o'quvchida matn bilan ishlash ko'nikmasi shakllanadi. Bundan tashqari o'qib tushunish, va savollar orqali og'zaki nutqini rivojlantirish ko'nikmasi shakllantiriladi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, hozirgi yangi nashrdagi 7- sinf ona tili darsligidagi matn bilan ishlash va o'qish savodxonligini oshirishga qaratilgan bir qancha mashqlar mavjud. Bular o'quvchida og'zaki nutqni shakllantirishga yordam beradi. Xususan, o'quvchilar o'z mahorati va tavsiyalarga amal qilgan holda matnni to'liq tushunishga va undan shu ko'nikmani rivojlanishiga erisha oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dulla Quronov, Shokir Tursun, Nilufar Hakimova, Mansur Siddiqov. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinflar uchun darslik. Toshkent: Respublika ta'lim markazi
2. Azimova I., Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi (Til ta'limiga oid fanlar moduli). Uslubiy qo'llanma. - T.: Hilol -Nashr, 2020.
3. Begmatov E. Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. - Toshkent, 1997.
4. G'ulomov A., Ne'matov H., Ona tili ta'lim mazmuni. - T.: O'qituvchi, 1995.
5. Yo'ldosheva D. Ona tili ta'limi maqsadining tadrijiy taraqqiyoti. -T.